

Usmonova Zuxrahon

Buvayda Abu Ali ibn Sino nomidagi

Jamoat Salomatligi texnikumi

Akusher-ginekologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Endometrioz – bachadon bo'shlig'ining ichki qavati, uning yuzasi, shuningdek boshqa a'zo to'qimalarida endometriy (bachadon devori ichki qavati) hujayralarining o'sishi bilan tavsiflanadigan kasallik. Endometriy o'sish o'chog'i joylashuviga qarab **genital endometrioz** (o'z ichiga bachadon endometriozini ham oladi) va **ekstragenital endometrioz** shakllari ajratiladi. Ommaviy qarashlarga qaramasdan, bu kasallik nafaqat jinsiy yetuk ayollarda, balki o'smirlarda va erkaklar orasida ham qayd qilinishi mumkin. Ammo ayollar orasida endometriozning tarqalganligini inobatga olib (reproduktiv yoshdagi ayollarning uchdan biri ushbu kasallikdan aziyat chekadilar), bu kasallikni «ayollar kasalligi» deb atash mumkin.

Kasallikning rivojlanishi uchun ikkita asosiy omil kerak: Mo'ljallanmagan joyda tug'ma anomaliyalar yoki menstrual ajralmalar kirishi orqali endometriy hujayralarining mavjudligi. Estrogen gormoni sekretsiyasini kuchayishi bilan birga kechadigan gormonal buzilishlar. Hozirgi vaqtda endometriy to'qimalari zarralarining tarqalishi natijada endometrioz o'choqlarining tarqalishi sabablarini tushuntirib beruvchi bir nechta qarashlar mavjud. Ular quyidagilar: Menstruatsiya vaqtida endometriy hujayralarining transportirovkasi va ularning keyinchalik bachadonning sirtki qatlamiga, bachadon bo'yni to'qimalariga, qin devorlariga, tashqi jinsiy a'zolarga birikib o'rnashishi, shuningdek, retrograd menstruatsiya sababli endometriy to'qimalarini tuxumdon, qorin bo'shlig'i sohasiga, tos a'zolariga otilishi. Endometrioz bilan shikastlanib bo'lgan to'qimalarning limfa oqimi orqali tarqalishi nazariyasi bachadon bo'shlig'i bilan boshqa yo'llar orqali aloqasi bo'lmagan a'zo va to'qimalarda patologik o'choqlarning joylashganligini tushuntiradi. Siydik-tanosil tizimining qoldiq rudiment embrional to'qimalari transformatsiya qilmasliklari mumkin va boshqa a'zolarida kam miqdorda qolib, salbiy omillar ta'siri ostida patologik faollik rivojlantirishlari mumkin. Ushbu nazariya homila ona qornidaligida siydik-tanosil tizimining hamma hujayralari jinsiy o'ziga xoslikni olmagan bo'lsa, erkaklarda endometrioz rivojlanishining epizodlarini tushuntiradi. Erkaklarda endometrioz o'choqlari rivojlanish ehtimoli estrogenlarni qabul qilishda ancha ko'tariladi, masalan, prostata bezi o'simtali kasalliklarini davolashda. Kasallik uchun irsiy moyillik nazariyasi ham mavjud.

Kalit soʻzlar

Endometrioz, neoplazmalar, oʻsmalar, [bachadon miomasi](#), anemiya, progesterone

KIRISH

Endometrioz birinchi navbatda, Endometriozdagi simptomatik tasvir sezilmas, xira boʻlishi, boshqa kasalliklar va disfunktsiyalarning alomatlariga oʻxshashi, ayrim ayollarda umuman alomatlarsiz kechishi mumkin. Faqatgina endometriozga xos boʻlgan spetsifik belgilar mavjud emas, ammo bachadon va reproduktiv aʼzolarida endometriy oʻsishini quyidagi alomatlariga asoslanib shubha ostiga olish mumkin. Qorinning pastki qismida ogʻriq, baʼzan yorqin namoyon boʻladi va uzoq davom etadi, chov va belga tarqalishi mumkin, bu «surunkali tos ogʻriqlari» deb ataladi. Ogʻriqning jinsiy aloqa, defakatsiya, ginekologik tekshiruvlar vaqtida kuchayishi. Koʻp ajralma kelishli (anemiya hollariga qadar) uzoq davom etadigan ogʻriqli hayz, [menstrual siklning buzilishi](#). [Birlamchi, ikkilamchi bepushtlik](#). Agar endometriy toʻqimalari reproduktiv aʼzoldan tashqarida joylashgan boʻlsa, lokalizatsiyasi oʻrniga qarab, burun qonashi, soʻlakda, siydikda, balgʻamda, axlatda, koʻz yoshda qon mavjudligi, kindikdan qon chiqishi kabi alomatlar kuzatilishi mumkin. Quyidagi omillar endometriy oʻsishi patologik oʻchoqlarining rivojlanishi ehtimolini sezilarli darajada oshiradi. Kichik tos va reproduktiv tizim aʼzolarida tez-tez sodir boʻladigan infeksiyon va yalligʻlanishli jarayonlar. Neoplazmalar, oʻsmalar, [bachadon miomasi](#). Operativ manipulyatsiyalar, invaziv muolajalar ([kesarcha kesish](#), jarrohlik aralashuvi, abort, bachadon boʻshligʻini tozalash, bachadon eroziyasini operativ davolash va hokazo). Asoratli tugʻruq jarayoni. Endokrin buzilishlar, turli xil etiologiyali gormonal disbalanslar. [Anemiya](#), immun himoya buzilishlari. Chekish, spirtli ichimliklarni, kofeinli ichimliklar va preparatlarni ortiqcha isteʼmol qilish.

Amaliy jihatdan, Bachadon tana endometrioz, ichki genital endometrioz va adenomioz koʻproq ixtisoslashtirilgan diagnostikada endometriy hujayralarining oʻsishi, ularning bachadon mushak qatlamiga, to seroz membranaga qadar oʻsib kirishi bilan ajralib turadi. Bu kabi hodisada hayz paytida koʻp qon yoʻqotish, anemiyaga olib keladigan bachadondan qon ketishi, sezilarli ogʻriq sindromi qayd qilinadi. Koʻpincha adenomioz ayollarning bepushtligi sababchisi boʻlib, homiladorlik boshlanishiga yoki homila koʻtarishga toʻsqinlik qiladi. Bachadon boʻynida endometriy hujayralarining oʻsib ketishi hollarining koʻpayganligini mutaxassislar eroziyani davolash uchun jarrohlik aralashuvlar oʻtkazish bilan bogʻlamoqda. Bachadon boʻynida kuydirish yoki boshqa manipulyatsiyalar hayzdan oldingi davrda amalga oshirilgan boʻlsa, endometriy hujarlarining menstrual ajralmalar bilan transportirovkasi vaqtida birikib oʻsib ketishi ehtimoli

mavjud. Endometriozning bunday joylashuvida odatiy alomat – sikllar oʻrtasida qonli ajralmalar, shuningdek, hayz paytida kuchaygan ogʻriqlar. Tuxumdon toʻqimalarining endometrioid kistalar bilan shikastlanishi – endometriozning eng keng tarqalgan shakllaridan biridir. Tuxumdonlarning endometriozida organizmning reproduktiv funksiyasi buziladi: tuxumdondagi kistalar [ovulyatsiya](#) jarayoniga toʻsqinlik qiladi. Tuxumdonlarning shikastlanishi follikullar zahirasi kamayishi, ayollarning bepushtligi bilan xavfli hisoblanadi. Asosiy alomat – qorinning pastki qismida oʻtkir ogʻriqlar sezilishi, ayniqsa jinsiy aloqa paytida yoki undan keyin. Tuxumdonlarning endometrioz UTI yordami bilan aniqlanadi. Menstrual sikl davomida tekshiruv bir necha bor amalga oshiriladi, bu endometrioid va funktsional kistalarni farqlash uchun kerak. Qorin parda endometrioz, ichki genital shakldan farqli oʻlaroq, ekstragenital endometrioz shakli ham mavjud. Endometriy oʻsishi oʻchogʻining tos sohasi, qorinparda, lekin jinsiy aʼzoldan tashqarida lokalizatsiyalanishida qorinparda (peritoneal) endometrioz haqida gapiriladi. Uning kelib chiqishi etiologiyasi retrograd hayzda endometriy hujayralarning transportirovkasi, endometriozning boshqa oʻchoqlaridan hujayralarning chiqishi, shuningdek homilaning rivojlanish davridagi anomaliyalari bilan bogʻliq. Peritoneal endometriozdagi alomatlar ham tos hududidagi ogʻriq hissi bilan namoyon boʻladi, ogʻriq jinsiy aloqa, defakatsiya, hayz vaqtida paydo boʻladi yoki kuchayadi. Kasallikning ushbu shaklini tashxislash juda qiyin, koʻpincha peritoneal endometrioz oʻchoqlari terapevtik yoki diagnostik operatsiya vaqtida aniqlanadi.

Nazariy jihatdan, Endometrioz holatlarining yarmi bepushtlik bilan birga kechadi. Bu quyidagi omillar bilan bogʻliq. Gormonal oʻzgarishlar natijasida ovulyatsiyaning buzilishi. Bachadon naylarida endometriozning hosil boʻlishi, shuningdek, endometrioz sababli tos aʼzolarining yalligʻlanish jarayonlari naylarning obstruktsiyasi, deformatsiyasiga olib keladi, bu esa tuxum hujayraning urugʻlanishiga toʻsqinlik qiladi. Bachadon ichi endometriozida tuxum hujayra implantatsiyasi jarayoni buziladi, bu homiladorlikning dastlabki bosqichlarida tugatilishiga olib keladi. Tuxumdonlar endometriozida kistoz shakllanma follikullarning yetilishiga toʻsqinlik qiladi va ovarial zaxiraning kamayib ketishiga olib keladi; Endometrioz oʻchoqlari nafaqat ayollarning sogʻligʻiga salbiy taʼsir koʻrsatadi, balki homila uchun toksik moddalarni chiqaradi.

ASOSIY QISM

Kirish qismida taʼkidlanganidek, endometriozga olib keluvchi sabablar juda koʻp. Ushbu endometriozga olib keluvchi sabablar amaliy va nazariy jihatdan tahlil qilinishi, ularning samaradorligini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Quyida omillar amaliy va nazariy jihatdan tahlil qilinib, misollar jadvalda koʻrsatilgan.

Amaliy jihatdan tahlili

Bachadon bo'ynida endometriy hujayralarining o'sib ketishi hollarining ko'payganligini mutaxassislar eroziyani davolash uchun jarrohlik aralashuvlar o'tkazish bilan bog'lamoqda. Bachadon bo'ynida kuydirish yoki boshqa manipulyatsiyalar hayzdan oldingi davrda amalga oshirilgan bo'lsa, endometriy hujarlararining menstrual ajralmalar bilan transportirovkasi vaqtida birikib o'sib ketishi ehtimoli mavjud.

Nazariy jihatdan tahlili

Bachadon ichi endometriozi tuxum hujayra implantatsiyasi jarayoni buziladi, bu homiladorlikning dastlabki bosqichlarida tugatilishiga olib keladi; Tuxumdonlar endometriozi kistoz shakllanma follikullarning yetilishiga to'sqinlik qiladi va ovarial zaxiraning kamayib ketishiga olib keladi

Misollar jadvali

Endometriozi kasalligi turlari	Organimga ta'siri	Kasallikni davolash
Bachadon tanasi endometriozi	Ichki genital endometriozi va adenomiozi ko'proq ixtisoslashtirilgan diagnostikada endometriy hujayralarining o'sishi, ularning bachadon mushak qatlamiga, to seroz membranaga qadar o'sib kirishi bilan ajralib turadi. Bu kabi hodisada hayz paytida ko'p qon yo'qotish, anemiyaga olib keladigan bachadondan qon ketishi, sezilarli og'riq sindromi qayd qilinadi.	Endometriozi davolash gormonal dori vositalarini belgilash bilan boshlanadi. Davolashdan naf bo'lmasa, operativ davolashga (endometriyning o'sish o'choqlarini olib tashlash, kuydirish bo'yicha operativ manipulyatsiyalar) murojaat qilinadi.
Bachadon bo'yni endometriozi	Bachadon bo'ynida endometriy hujayralarining o'sib ketishi hollarining ko'payganligini mutaxassislar eroziyani davolash uchun jarrohlik aralashuvlar o'tkazish bilan bog'lamoqda. Bachadon bo'ynida kuydirish yoki boshqa manipulyatsiyalar hayzdan oldingi davrda amalga oshirilgan bo'lsa, endometriy hujarlararining menstrual ajralmalar bilan transportirovkasi vaqtida birikib o'sib ketishi ehtimoli mavjud.	Bachadon bo'yni endometriozi davolash ham gormonal terapiyaga va zarurat bo'lganda jarrohlik aralashuvlariga asoslangan.
Tuxumdon endometriozi	Tuxumdon to'qimalarining endometrioid kistalar bilan shikastlanishi — endometriozi eng keng tarqalgan shakllaridan biridir. Tuxumdonlarning endometriozi organizmning reproductiv	tuxumdonlar endometriozi tashxisi tasdiqlangach, laparoskopiya usuli bilan operativ davolash belgilanadi. Bunda o'zgargan to'qimaning bir qismi, kistaning o'zi yoki agar

	funktsiyasi buziladi: tuxumdondagi kistalar ovulyatsiya jarayoniga to'sqinlik qiladi	endometriy tuxumdonlarning ahamiyatli qismiga ta'sir qilgan bo'lsa, butun tuxumdon olib tashlanadi.
Qorinparda endometriozi	Ichki genital shakldan farqli o'laroq, ekstragenital endometriozi shakli ham mavjud. Endometriy o'sishi o'chog'ining tos sohasi, qorinparda, lekin jinsiy a'zoldan tashqarida lokalizatsiyalanishida qorinparda (peritoneal) endometriozi haqida gapiriladi.	Peritoneal endometriozdagi alomatlar ham tos hududidagi og'riq hissi bilan namoyon bo'ladi, og'riq jinsiy aloqa, defakatsiya, hayz vaqtida paydo bo'ladi yoki kuchayadi. Kasallikning ushbu shaklini tashxislash juda qiyin, ko'pincha peritoneal endometriozi o'choqlari terapevtik yoki diagnostik operatsiya vaqtida aniqlanadi.

Yuqoridagi jadvalda ,endometriozi kasalligini turlari va davolash usullari haqida ma'lumot berilgan.

XULOSA

Homilani ko'tarish gormonal kasalliklar tufayli qiyinlashadi, ichki va tashqi jinsiy a'zolarning endometriozi bo'lganda tug'ruq ko'pincha patologik, sog'liq uchun xavfli bo'lgan asoratlar bilan o'tadi. Endometriozi boshqa keng tarqalgan asoratlari orasida muntazam qon yo'qotish tufayli anemiya, peritonit mavjud, shuningdek, endometriy o'choqlaridagi asab tolalari zararlanadi, bu esa nevrologik buzilishlarga olib keladi. Endometriozi dan reproduktiv yoshdagi ayollarning 30 foizi aziyat chekadi. Kasallikni irsiy tabiati qisman tasdiqlanganligiga qaramasdan, endometriozi profilaktikasi kasallikning rivojlanishini oldini oladi yoki sekinlashtiradi. Kasallikni keltirib chiqaradigan eng muhim omillardan biri immunitetning pasayishi hisoblanadi. Mutaxassislar endometriozi bilan kasallanmaslik uchun to'g'ri ovqatlanish, zararli odatlardan voz kechish va jismoniy faollikni e'tiborsiz qoldirmaslikni tavsiya qiladilar.

Xulosa qilib aytganda, endometriozi ning erta bosqichlarini tashxislash va o'z vaqtida davolash ham profilaktika choralariga tegishli. Ginekologga muntazam ravishda tashrif buyurish, bachadon bo'yni, qin holatini tekshirtirish, kontratseptivlarni to'g'ri tanlash endometriozi ga chalinishni oldini olish yoki endometriozi va boshqa kasalliklarni erta bosqichda aniqlash va davolashni ta'minlaydi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Ayupova.F.M,Ixtiyarova G.A,Matrizayeva.G.J

2.MYMEDIC